

LANDSHAFTSHUNOSLIK FANINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qurbonova Charos Toshmurod qizi**Guliston davlat universiteti talabasi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.11233529>

Annotatsiya: Ushbu maqola landshaftshunoslik fanining qanday kelib chiqqanligi, bu fan shakllanishida kimlar o'z hissasini qo'shganligi, o'ziga xos xususiyatlari, Respublikamizda qanday landshaft turlari mavjudligi va komponentlari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Landshaft, geografik qobiq, landshaft qobig'i, biogenosfera, epigeosfera, landshaft sferasi, o'simlik, relyef, tuproq, iqlim, agrolandschaft, antropogen ta'sir.

FORMATION OF LANDSCAPE SCIENCE

Qurbonova Charos**Student of Gulistan State University**

Abstract: This article describes how the science of landscape science originated, who contributed to the formation, special features, it is written about what types of landscape exist in our Republic and their components.

Key words: Landscape, geographical shell, landscape shell, biogenosphere, epigeosphere, landscape sphere, plant, relief, soil, climate, agrolandscape, anthropogenic influence.

Landshaft tabiat komponentlarining o'zaro uyg'unligi ta'sirida shakllangan tabiiy geografik obyekt hisoblanadi. Landshaftshunoslik tabiiy geografiya fanidan ajralib chiqqan bo'lib, bu fanning ham o'rganish obyekti geografik qobiq hisoblanadi.

Shuning uchun ko'pgina olimlar geografik qobiq deb nomlanishi va uning xususiyatlari haqida turlicha fikr yuritishgan. Geografik zonalik qonuniyatini asoslab bergan olim V.V.Dokuchayev landshaftshunoslik fanining asoschisi hisoblanadi. Tabiat zonasi iqlim, tuproq, o'simlik, hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy mujassamalardir va bu tabiat komponentlari o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Shu so'zlardan kelib chiqqan holda V.V.Dokuchayev yangi fanga asos solidi. Lekin landshaft atamasini qo'llamaydi.[1]

Geografik qobiq haqidagi ta'limotning ommalashtirilishida S.V.Kalesnik 1940-yilda birinchi bo'lib „geografik qobiq“ atamasini ishlatgan bo'lsa, keyinchalik 1955, 1970- yillarda u „ landshaft qobig'i atamasidan foydalana boshladi.

Landshaftni birinchi bor ifodalab berishga urinib ko'rganlardan biri A.A.Borzov 1954-yilda bir landshaftni ikkinchisiga qanday ta'sir etishini aniqlaydi. Umuman yer yuzasi qanday landshaftlardan tuzilganligini tushunishga, ularning har birini mavjudligini, tarqalishini va o'zaro ta'sir qonunlarini tushuntirib berishga harakat qiladi. [1]

1913-yilda L.S.Bergning ifodalashi bo'yicha landshaft relyef, iqlim, o'simlik, tuproq qatlami garmonik bir butunlikni tashkil qilib, Yerning ma'lum bir tabiat zonasi bo'ylab tipik qaytalanib turadi. Bu geografik landshaft haqidagi eng dastlabki ilmiy ta'riflardan biri bo'lib, unda landshaft tabiat zonasining bir qismi ekanligiga va u tabiiy geografiyaning predmeti ekanligiga ishora qilinadi.[2]


Yerning tashqi qobig'ini geografik adabiyotda "landshaft qobig'i" (Yu.K.Yefremov, 1950: V.B.Sochava, 1956),

"landshaft sferasi" (Yu.K.Yefremov, 1959: D.L.Armand, 1975),

"biogenosfera" (I.M.Zabelin, 1959, 1978),

"epigeosfera" (A.G.Isachenko, 1965, 1991)

"geosfera" (A.M.Ryabchikov, 1978) deb nomlash hollari uchraydi. Bir vaqtlar V.I.Vernadskiy (1926) aytgan "biosfera" ham o'z chegaralari bilan geografik qobiqqa mos keladi.[1]



Gipergenez zona va yer yuzasi Anaerob bakterivalarning kirib borish chegarasi

O'rmonshunos G.F.Morozov (1913-yil) fikricha, har qanday hudud o'zining tabiiy sharoitiga qarab landshaftlarga, ya'ni tabiiy birliklarga bo'linadi. Bu birliklar bir tomondan iqlim, ikkinchi tomondan geologik shart-sharoit, relyef uchinchi tomondan esa o'simlik va hayvonot dunyosi kesishadigan nuqtaning yoki tugunni tashkil qiladi.[4]

I.V.Larin 1926-yil dalada olib brogan landshaft tadqiqotlarini tabiiy geografik majmualar haqiqatdan ham obyektiv mavjud bo'lib, ularni aniqlash Xaritaga tushurish va ta'riflab berish mumkinligiga iqror bo'ldi.[4]

Shunday qilib, 1930-yillarga kelib landshaft faqat geograflargina emas, balki ko'pgina tabiatshunos olim va mutaxasislarni ham o'ziga jalb etdi, ular tomonidan e'tirof etila boshlandi. Shu vaqtlardan boshlab landshaftshunoslik taraqqiyoti tarixida yangi bosqich, ya'ni landshaft haqida tushunchani aniqlashtirish, landshaft haqidagi ta'limotni nazariy jihatdan umumlashtirish va muhimlashtirish bosqichi boshlandi. Geografik landshaft shunday bir hodisa va jarayonlarning guruhlashgani yoki majmuasini, unda relief, iqlim, tuproq, o'simliklar qoplami va hayvonot dunyosi hamda insonning xo'jaligidagi faoliyat ham uyg'unlashib ketgan landshaftni tashkil qiluvchi omillarning o'zaro ta'siri va aloqadorligini o'rganishdir.

F.N.Milkov fikricha, landshaft tushunchasi iqlim, tuproq, o'simlik tushunchalari kabi umumiy tushunchadir. Bu tushuncha hududning kata yoki kichikligidan qat'iy nazar tadbiq qilinishi mumkin. Masalan, o'rmon landshafti, iqlim cho'llar landshafti, tog'lar landshafti, botqoqliklar kabi. Uning ta'kidlashicha landshaft o'zaro bog'liq va aloqador bo'lgan tabiiy narsalar va hodisalar majmuidan iboratdir va bizning ko'z oldimizdan tarixan shakllangan doimo rivojlanishda bo'lgan hamda turli taksanomik qiymatga ega bo'lgan tabiiy geografik

mujassamlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Landshaftshunoslik ko'lami jihatidan cheklanmagan. Xususan Yerning landshaft qobig'ini o'rganadigan fandır.[3]

Landshaftlarning shakllanishi va rivojlanishi o'rganish bilan bog'liq bo'lgan yo'nalishlardan yana biri antropogen landshaftshunoslikdir. Haqiqatdan ham yer yuzasida kishi ta'sirida bo'lmagan inson tomonidan o'zgartirilmagan tabiiy landshaftlar kam qolgan. Inson o'z ta'siri bilan landshaft hosil qiluvchi jarayonlarni murakkablashtiradi. Ko'pincha ularni buzadi. Landshaftning morfologik tuzulishini oydinlashtirib yuboradi. Natijada tabiiy landshaftlar o'rnida antropogen landshaftlar hosil bo'ladi. Geotizimlar haqidagi ta'limot ham shu yo'nalishga kiradi.[1]

Landshaftshunoslik ham boshqa fanlar qatorida nazariy masalalar bilan birgalikda amaliy masalalarni hal etishga harakat qiladi va natijada yangi yo'nalish, amaliy landshaftshunoslik yuzaga keladi. Amaliy landshaftshunoslik tadqiqotlarning asosiy mazmuni landshaft haqidagi ta'limotning asosiy nazariy qoida va usullarini xalq xo'jaligiga taaluqli masalalarni yechishga tadbiriq etish demakdir. Landshaft tadqiqotlarining natijalari yangi yerlarni o'zlashtirishda, yo'l transport qurulishi, shahar, qishloq, sanoat qurulishi va turli-tuman yirik inshootlar qurulishida, sog'liqni saqlash va rekreatsiya, tabiat muhofazasi bilan bog'liq ko'pgina tadbirlarning ilmiy asosini yaratishda kata ahamiyat kasb etishi mumkin. Madaniy landshaftlarni barpo qilish va landshaftlarni samarador qilish, amaliy landshaftshunoslikning bir qismidir.

A.G.Isachenko fikricha landshaft geografik qobiqning genetik jihatdan o'ziga xos bir qismiki, u zonal va azonal jihatdan bir turligi bilan tavsiflanadi va o'ziga xos tuzulishi hamda o'ziga xos morfologik tarkibga egadir. Uning fikricha landshaft tabiiy geografik rayonlashtirishning eng asosiy birligi bo'lib zonal xususiyatlari bo'yicha ham bir butun bo'lib boshqa bo'linmaydi. Landshaft, agar o'zidan kichik mujassamalarga bo'linsa u o'zining zonal yoki azonal xususiyatini yo'qotib qo'yadi.[1]

Shunday qilib, geografiya faniga ko'pchilik tabiatshunos olim va mutaxassislar tomonidan landshaft tushunchasi kiritildi. Landshaft o'zi umumiy tilda manzara, joyning ko'rinishi degan ma'nolarni anglatadi. Landshaft- bir xil geologik tuzulishi, bitta relyef turi, bir xil iqlimi hamda faqat shu landshaftga xos bo'lgan o'zaro bog'liq kichik geotizimlar yig'indisidan iborat genetik jihatdan bir butun geotizimdir. Landshaftlar joylardan, joylar urochishelardan, urochishelar esa fatsiyalar tizimidan iborat.

Birgina O'zbekiston Respublikasining landshaftini ko'rib chiqadigan bo'lsak, unda 34 xil landshaft turi mavjud. Masalan:

- tog'lik (baland tog'lar, o'rtacha baland tog'lar, past tog'lar) qismida serqor, serqoryoni, o'tloq dasht, o'rmon va siyrak o'rmonlar, quruq dasht, chalacho'l, cho'l, sho'rxok, to'qay, antropogen landshaft turi tarqalgan.

- Tog' oldi qismida faqat chalacho'l, cho'l, antropogen landshaft turlari mavjud.

- Tekislik qismida: tog' oralig'i botig'i, tabaqali, eol qismida cho'l, sho'rxok, antropogen,

- qoldiq tog'larda cho'l va antropogen

- allyuvial deltada cho'l, sho'rxok, to'qay, antropogen

- ko'llar atrofida cho'l, sho'rxok

- berk soylikda faqatgina sho'rxoklar mavjud

- dengiz atrofida cho'l, sho'rxok, to'qay landshafti tarkib topgan. [5]

Sirdaryo viloyati landshaftiga tavsif beradigan bo'lsak, avvalambor tabiat komponentlarining geografik tarqalishi, relyef shakllari, geologik va litologik tuzulishi qanday ekanligini bilib olishimiz kerak. Bu yerda tuproq tiplari va ularni xillarining tabaqalanishi tog' oldi prolyuvial-alyuvial tekisliklarda, berk botiqlarda, daryoning terrassalarida yaxshi ifodalangan. Viloyat hududining katta qismi o'tloqi-allyuvial, bo'z-o'tloq, och tusli bo'z, oddiy bo'z va to'q tusli bo'z tuproqlar bilan qoplangan. U o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, hosil bo'lishi yotqiziqqlarga va gidrogeologik sharoitlarga bog'liq. Bu tuproq hosildor hisoblanadi. Kuchli sho'rlanmagan sizot suvlari sathi yer yuzasiga yaqin joylashgan bo'lib, chuqurligi 1-2 metrni, ba'zi joylarda 0,5 -1 metrni tashkil etadi.[4]

Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan viloyat hududida olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, geosistemalarda antropogen ta'sir, ya'ni daryo oqimining sun'iy va energetik rejimga o'tishga mos ravishda ekologik zo'riqish yuzaga kelgan. Bu holat oxirgi 15-20 yilda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatiga salbiy ta'sir etmoqda. Hozirgi kunda avtomorf rejimda shakllangan tuproqlar yarimgidromorf va gidromorf tipga aylandi va asosiy maydonlarni turli darajada sho'rlangan tuproqlar egalladi. Bu esa, o'z navbatida sug'oriladigan yerlar mahsuldorligini oshirishni ta'minlaydigan hamda agrolandshaftlarda ekologik muvozanatni saqlash va sho'r bosgan, kuchli degradatsiyaga uchragan maydonlarni kamaytirib, ulardagi jarayonlarni optimallashtirish kabi muammolarni oldinga suradi.[4]

References:

1. Sh.S.Zokirov Landshaftshunoslik asoslari Toshkent – 2010 “UNIVERSITET”
2. P.Baratov, A.Soatov Umumiy tabiiy geografiya Toshkent – 2005 “O'QITUVCHI” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi
3. Арманд Д,Л Наука о ландшафте.-М; Мысль, 1975
4. www.ziyouz.com
5. Atlas. O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografiyasi. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi. Toshkent 2016